

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING GEOMETRIK TASAVVURINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR

**To‘xtasinov Dadaxon Farhodovich**

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Abdupattoyeva Dilorom Akromjon qizi**

FarDU 2- kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining geometriya fanini o‘rganishida didaktik materiallardan samarali foydalanishni ta‘minlashga qaratilgan. O‘quvchilar maqolada keltirilgan usullar yordamida geometrik tasavvurlarini boyita oladi. Shuningdek boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ham geometrik materiallarni o‘rgatishda ushbu ma‘lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** interfaol metodlar, geometrik o‘yinlar, “Shaklni aniqlash” O‘quv o‘yini “qaysi raqam yo‘qoldi?”, “Geometrik shakllardan applikatsiya” o‘yini.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida hamda “Boshlang‘ich ta‘lim” konsepsiyasida ta‘kidlanganidek, o‘quvchini mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va faollikka o‘rgatuvchi ta‘lim uslublarini qo‘llash hozirgi zamon boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifalaridan biridir. Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasida “Ta‘lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san‘at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta‘minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” deb alohida ta‘kidladilar.

Bugun har jihatdan yetuk, barkamol, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti uchun ongli – faol shaxsni tarbiyalash, ularga ta‘lim berish har bir fan o‘qituvchisining muhim vazifalaridan biridir. Ta‘lim samaradorligi o‘qituvchi mehnatining asosiy omili hisoblanadi. Bu esa o‘z-o‘zidan o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari va fan asoslarini o‘zlashtirishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hozirda o'quvchini dars jarayonining faol sub'yektiga aylantirish, darslarni interfaol usulda tashkil etish muhim. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki geometrik bilimlarni berish jarayonida o'qituvchi ta'limning eng samarali va qulay usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Shu sababdan o'quvchilarga berilayotgan materiallar ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin usulida uyushtiriladi. Bunday o'yinlar jarayonida o'quvchilar darslikda berilgan ma'lumotlarni, topshiriqlarni, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan materiallarni oson tushunadi, shu bilan bir qatorda atrof-muhitni, voqealarni kuzatishga, ularni taqqoslashga, hayotga bog'lashga, ular to'g'risida fikrlashga, to'g'ri xulosa chiqarishga va xulosalarni asoslashga o'rganadilar. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarini interfaol usullarda o'tish jarayonning yengillashuvini, aniqlashuvini, keng jamoani qamrab olishga mo'ljallanganligini, o'qituvchining faqatgina yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi nazoratchiga aylanishini, o'qitishning erkin va majburiyatsizligini hamda eng asosiysi o'quvchilar uchun qiziqarliligini va samaradorligini ta'minlab bera oladi. Quyida geometriya fanining dastbki tushunchalarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishda samarali deb xisoblangan metod va usullar haqida keltrib o'tamiz.

**Shaklni aniqlash** - O'yinning maqsadi-hissiy rivojlanish, shakl bo'yicha guruhlash. Bolalar nutqida geometrik shakl nomlarini (doira, kvadrat, to'rtburchaklar, uchburchak) to'g'ri talaffuzini ta'minlash. Diqqat, idrokni rivojlantirish. So'z boyligini kengaytirish. Geometrik shakllarni aralashtirib bolani ma'lum bir shakllarni tanlashga undash (masalan, faqat doira yoki faqat kvadrat va boshqalar) kabi bilimlarini oshirishga qaratilgan.

**O'quv o'yini "qaysi raqam yo'qoldi?"** - Doskaga geometrik shakllar tasvirlangan kartalar biriktirilgan. Chaqirilgan o'quvchi rasmlarga diqqat bilan qaraydi va ularni eslab qolishga harakat qiladi, keyin u yuz o'giradi va o'qituvchi raqamlardan birini yashiradi. Bola doskaga o'girilib, qaysi qismlar yo'qolganini bilishga harakat qiladi. raqamni taxmin qilgandan so'ng, uning nomini talaffuz qiladi va uni tasvirlaydi.

**"Geometrik shakllardan applikasiya" o'yini** - Maqsad: tekis geometrik shakllarni farqlashni o'rganish, ularni nomlash, geometrik shakllarni turli belgilar bilan farqlash, o'quv ishlarini bajarish uchun geometrik shakllardan foydalanish.

O'quvchilar geometrik shakllar to'plamidan ilova uchun kerakli o'lcham va shaklni tanlashlari kerak edi. Maqsad: tekis geometrik shakllarni farqlashni o'rganish, ularni nomlash, geometrik shakllarni turli belgilar bilan farqlash, o'quv ishlarini bajarish uchun geometrik shakllardan foydalanish. O'quvchilarga har qanday rasmlar

kartalar berildi. Turli o'lcham geometrik shakllar to'plami ham chiqariladi. Har bir o'quvchida rangli qog'oz, qaychi, yelim to'plami bo'lishi kerak bo'ladi. O'quvchilar qaysi geometrik shakllar chizilganligini ko'rishlari kerak. Ularga berilgan to'plamdan ular shakli va o'lchamiga mos shakllarni tanlaydilar, geometrik shakllarning tanlangan shablonlarini rangli qog'ozga aylantiradilar, kesib, rasmga yopishtiradilar

Didaktik o'yinlardan foydalanganda geometrik materialning takroriy takrorlanishi sodir bo'ladi. Didaktik o'yinlar birinchi sinf o'quvchilarining o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi, materialni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi va sinfda qulay muhit yaratadi.

Ko'rinib turibdiki, didaktik materiallar ma'lumot (yangi bilimlar) manbai, nazorat qilish, bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganligini hisobga olish va nihoyat, o'quvchilarning mustaqil individual ishlarini tashkil qilish vazifalarini bajaradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. A.A. Абдуқодиров “Мақтабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти” Насаф. Тошкент. 2011. – 229
2. Ғозиев Э.Ғ. Социал психология. Ношир. Тошкент. – 2012 й
3. Farkhodovich, T. D. (2022). Pedagogical and Psychological Fundamentals of Developing Student Logical Thinking I. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 376-379.
4. Farhodovich, T. X. D. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 3(3), 24-28.